

# МУАССИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛДІМДЕНДИРИҮ



*Илимий-методикалық журнал*

---

**2023**

**2/1-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

**2/1-сан 2023**

*март-апрель*

---

*Шолкемлестириүшилдер:*

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,  
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:  
А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Максет АЙЫМБЕТОВ	Сабит НУРЖАНОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ	Урлбай МИРСАНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ	Нуржан МАТЧАНОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ	Шукурилло МАРДОНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ	Бахтиёр РАХИМОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ	Арзы ПАЗЫЛОВ
Тұлқин АЛЛАЁРОВ	Барлықбай ПРЕНОВ
Умида БАҲАДИРОВА	Қаҳхор ТУРСУНОВ
Фархад БАБАШЕВ	Нурзода ТОШЕВА
Гулзода БОЙМУРОДОВА	Тажибай УТЕБАЕВ
Маманазар ДЖУМАЕВ	Амангелди КАМАЛОВ
Асқар ДЖУМАШЕВ	Ризамат ШОДИЕВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА	Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Мырзамурат ЖУМАМУРАТОВ	Дүстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умида ИБРАГИМОВА	Гулрухсөр ЭРГАШЕВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА	Гавхар ЭЩАНОВА
Асқарбай НИЯЗОВ	



## МАЗМУНЫ

## ТИЛ ХЭМ ӨДЕБИЯТ

Seytkasimov D. B. Kompetencyaǵa baǵdarlangan tálım tiykarında filolog-oqítıwshí profilin jaratıw .....	6
Курбанова Ш. А. Концепт терминининг когнитив тильтуносликда ва лингвомаданияштуносликдаги аҳамияти .....	13
Toshxujayeva Sh., Karimova Sh. Erkin A'zam asarlarida frazeologizmlar .....	20
Masodikova Z. H. Oliy ta'lím muassasalarida nemis tilini pedagogik texnologiyalar orqali o'rnatish .....	24
Akbarova M. Sh. G`ayriodatiy birikmalar badiiy matnning lingvopoetik qiyamatini oshiruvchi omil sifatida .....	28
Yigitaliyeva Sh. I. "Yaxshilik" konseptining bilvosita ifodalanishi .....	33
Закирова Д. Х. Нуткий жанрлар концепцияси хусусида .....	38
Тошхужаева Ш., Каримова Ш. Эркин Аззам асарларида киноя .....	43
Тошхужаева Ш. Эркин Аззам асарларида парантезаларнинг лингвопоэтик хусусиятлари .....	47
Орипова К. Э. Ўхшатишлар иштирокидаги бадий матнларда антонимлар маданий омил сифатида .....	52
Ishmatova O. S. Fonetik ritmika – nutqni kompleks rivojlantirish omili sifatida .....	57
Махмудова Д. С. Методы и приемы обучения русскому языку .....	65

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Хужаназарова Н. М. Тарбияланувчиларда меҳнат кўнникмаларини ҳосил қилиш .....	70
Taylanova Sh. Boshqaruvin tizimini rivojlantirish yo'llari .....	73
Донаев С. Х. Таълим сифатини бошқаришининг муҳим хусусиятлари .....	77
Abdraimova B. B. Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik diagnostika muammosining nazariy aspektlari .....	83
Kultaev K. K. To'yingan uglevodorodlar mavzusiga interfaol usullarning tatbig'i .....	92
Abdullahayev A. Q., Abdullaeva N. R. Umumiy o'rta ta'lím maktablarida matematika fanini o'qitishda innovatsion ta'lím texnologiyalari asosida kreativ faoliyatini rivojlantirish .....	99
Ibadullayeva Sh. N. Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning mexanizmlarini takomillashtirish .....	105
Бабаева Х. У. Педагогик таълим инновацион кластерининг афзаллиги .....	111
Эрназарова Г. О., Калдибеков А. Б. Бўлажак педагогларнинг технологик компетентлик даражасини ривожлантиришининг педагогик шарт-шароитлари .....	115
Курбанова М. Э. Касбий-технологик вариативлик асосида ўкув жараёнида инновацион фаолиятни ташкил этиши .....	121
Тўйчиева Г. М. Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-билиш компетенциясини шакллантириш .....	125
Janbayeva M. S. Innovatsion jamiyat sharoitida zamonaviy o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyojlar .....	130
Meylieva M. S. Kasb tanlashga munosabat tizimi mezonlarining tanlanishi .....	133
Ne'matova Z. F. Ta'lím, fan va ishlab chiqarish integratsiyasida zamonaviy o'rta bog'in kadrlarni tayyorlash tamoyillari .....	138
Majidova G. A. Umumta'lím maktablarida immersiv texnologiyalardan foydalinish ko'nikmasini oshirish .....	142
Xalilov F. V. Muhandislik oliy ta'lím muassasalarida mustaqil ta'lím va unda bilimlar bazasi qo'llash zaruriyati .....	146
Ашуррова С. Ю. Ўқитиш тамойиллари таълим жараёнида дидактик воситалар ва материаллардан фойдаланишининг асоси сифатида .....	152
Muslimov Sh. N. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy-grafik kompetentligini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'límning roli .....	157



<b>Sharipov A. A.</b> Professional talim muassasalari oquvchilarining zamonaviy pedagogik texnologiyalar vositasida amaliyatga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish .....	163
<b>Абдалова С. Р.</b> Дарснинг ўкув жараёнидаги ўрнини ўрганиш ҳамда муаммоли ўқитиши технологияси нуткай-назаридан таҳлил килиш .....	168
<b>Мусурманов Р., Султанова Д. А.</b> Академик Қори Ниёзий педагогик фаолиятини ўрганиш замон талаби .....	174
<b>Raxmanova M. Q.</b> Talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari .....	178
<b>Кадирова X. А.</b> Замонавий таълим технологиялари ёрдамида миллий дунёкарапши ривожлантириши механизмлари .....	183
<b>Парпиева М. М.</b> Технологик таълим ўқитувчисининг аутопедагогик компетентлигини ривожлантириши муаммосини ўрганишининг илмий-амалий асослари .....	188
<b>Tursunbayeva Yu. R.</b> Oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonini boshqarish texnologiyasi pedagogik mexanizmlari .....	194
<b>Мусурмонов Р., Суяров А. М.</b> Ёшларнинг шарқона имиджи ва муомала одобини шакллантириш хусусида .....	200
<b>Жумаева Ю. Р.</b> Бўлажак ўқитувчиларни форсайт технологияси асосида касбий фаолиятга тайёрлаш .....	206
<b>Кабирова З. М.</b> Араплаш таълим технологияларининг ахамияти .....	211
<b>Xasanov F. Z.</b> Bo'lajak matematika o'qituvshilarini metodik tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	215
<b>Ortiqova N. A.</b> O'qituvchining pedagogik faoliyatidagi psixologik to'siqlar va ularni bartaraf etish metodlari .....	220
<b>Ortiqova N. A.</b> Tarbiya maqsadini ishlab chiqishning pedagogik xususiyatlari .....	230
<b>Axmadaliev B. S.</b> Oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishning innovasion usullari .....	235
<b>G'aniyeva D. M.</b> Методология анализа взаимной интеграции форм социального сознания на основе научных подходов .....	239
<b>Файзиева У. Ю.</b> Особенности внедрения инклюзивного образования в Республике Узбекистан .....	248
<b>Махмудова Д. С.</b> В педагогической деятельности учителя психологические барьеры и методы их преодоления .....	257
<b>Кочкаров А. А.</b> Диагностика индивидуально-типологических свойств курсантов образовательных учреждений МВД Республики Узбекистан .....	264
<b>Musurmankulova M. N.</b> The new educational system of uzbekistan and new conditions for teachers .....	269

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

<b>Файзиева У. Ю.</b> Международная практика инклюзивного образования История становления инклюзивного образования .....	272
--	-----

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

<b>Mirsanov U. M., Isroilov N. S.</b> Umumiy o'rta ta'lim mablag'i dasturlash dasturlashni o'rgatishda xorijiy davlatlarning tajribalaridan foydalanish .....	280
<b>Esanbayev B. I.</b> Talabalarning fraktal grafikaga oid kompetentligini rivojlantrish muammolari ..	286
<b>Абидова З. К.</b> Профессионал таълим муассасалари ахборот мухитини шакллантирища электрон таълим ресурслари янги авлодидан фойдаланиш .....	292
<b>Xo'janazarov Z. R.</b> Ta'lim sifatini ta'minlashda SMART-texnologiyalaridan foydalanish ..	298
<b>Yusufxodjayeva F. M.</b> O'quvchilarida gazlamalarga ishlov berish texnologiyasi darslarida kasanachilik ko'nikmalarini shakllantirish .....	305
<b>Ibragimova M. G.</b> Texnologiya ta'limi darslarida o'quvchilarni ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantrish orqali kasb- hunarga yo'naltirish .....	310
<b>Isaqova Z. R., Tursunov J. E.</b> To'qimachilik korxonalarida mato turlarini kengaytirish .....	315



## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

<b>Shodiyev R. D., Shonazarov U. Sh.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish .....	319
<b>Taylanova Sh.</b> Maktabgacha ta'lif tizimini yanada takomillashtirish .....	326
<b>Rabbimova M. M.</b> Bo'lajak maktabgacha ta'lif pedagoglarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish .....	330
<b>Эрханова Н. А.</b> "Тил ва нутқ" марказида инновацион-методик фаолият олиб бориш самаадорлиги .....	333
<b>Жовмирзаева Н. Қ.</b> Мактабгача таълим муассасалари тарбиячиларининг эмоционал компетенциясини шакллантириш механизmlари .....	339
<b>Karimova Sh. B.</b> Maktabgacha yoshdag'i bolalarning vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda axloqiy kotoqoriyalarning ahamiyati tahlili .....	343
<b>Halimova M. A.</b> Tabiiy fanlar (SCIENCE) o'quv predmeti – o'quvchilar ilmiy dunyoqarashini rivojlantish aspektlari sifatida .....	347
<b>Mo'minova G. B., Sirojiddinova S.</b> Zamonaliviy maktabgacha ta'lif tizimini rivojlantirish asoslar (O'zbekiston misolida) .....	352
<b>Mo'minova G. B., Muhammadaliyeva D.</b> Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida bolalarning nutqini o'stirish metodlarining ilmiy-nazariy tahlili (turli yosh bosqichlari misolida) .....	356
<b>Dehqonova M. G'.</b> Ko'zi ojiz bolalar bilan olib boriladigan logopedik ishning o'ziga xos xususiyatlari .....	360
<b>Azizova Z. b., Aliyeva S.</b> Maktabgacha yoshdag'i bolalarning aqliy bilish ko'nigmalarini rivojlantirish texnologiyalari .....	366
<b>Azizova Z. B., Mavlanova M.</b> Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida pedagoglarning kreativligini rivojlantirishning ahamiyati .....	370
<b>Abdubannopova M. A.</b> Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida tarbiyachinbing inklyuzif kompetensiyasini rivojlantirish .....	374
<b>G'aniyeva D. M., Ismoilova M.</b> Maktabgacha yoshdag'i bolalarda ijtimoiy ong shakllanishida axloqiy normalarning ahamiyati .....	379
<b>Usmonova M. S.</b> Alohida ta'lif ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash muammollari .....	388
<b>Yoqubjonova G. X.</b> Boshlang'ich sinflarda o'qish va tabiatshunoslik fanlarini o'qitishda fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish .....	393
<b>Жураева М. А.</b> Развитие коммуникативно-речевой компетенции будущих учителей начальных классов .....	399
<b>Asiljonova Sh.</b> Preschoolers Benefit from Learning a Foreign Language .....	404

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХЭМ СПОРТ

<b>Қамбаров О. Ф.</b> Кичик синф ўкувчиларини жисмоний тайёргарлигини баҳолашнинг методологик асослари .....	411
<b>Муродов К. Н.</b> Спорт курашида маҳсус ускуналар ёрдамида мушак кучини даражасини аниқлаша ва ривожлантариш йўллари .....	418
<b>Исмагилов Д. К.</b> Интегральные специальные средства подготовки футболистов на этапах совершенствования спортивного мастерства и высшего спортивного мастерства .....	426
<b>Миршарапов А. Г.</b> Мини-футбол как средство физического воспитания и физической подготовленности .....	429
<b>Эрдонов О. Л., Махмудов В. В.</b> Мини-футбол как вид спорта и средства физического воспитания студенческой молодёжи .....	433
<b>Эрдонов О. Л.</b> Актуальность физического воспитания среди студенческой молодежи на основе применения информационных технологий .....	438
<b>Mirzayev A. M.</b> The task of physical education and the technique of belt wrestling in the training of cadets .....	444



## FONETIK RITMIKA – NUTQNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

*Ishmatova O. S.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi o’qituvchisi*

**Tayanch so’zlar:** Fonetik ritmika, logopediya, surdopedagogika, AKT, metodika , korreksiya, postanovka, avtomatizatsiya, qo’l, oyoq, harakat,, diqqat, eshituv idroki, motorika, musiqa, ritm, harakat, mutq, nutqning fonetik-fonemati, leksik-grammatik komponentlari, kommunikatsiya, Pfaffenrod, Vlasovalar, Г. А. Волкова, Т. М. Гребенко, овоз, nutqiy nafas, dislaliya, electron qo’llanma, prosodika, nutq-harakat...

**Ключевые слова:** Фонетическая ритмика, логопедия, сурдопедагогика, ИКТ , методика, коррекция, постановка, автоматизация, рука, нога, движение,, внимание, слуховое восприятие, моторика, музыка, ритм, движение, развития фонетико-фонетическихко-го, лексико-грамматического компонентов речи , коммуникация, Пфаффенрод, Власовы, г. А. Волкова, Т. М. Гребенко, голос, речевое дыхание, дислалия, электронноу пособие, просодика, речь-движение...

**Keywords:** Phonetic rhythms, speech therapy, surdopedagogy, ICT , methodology, correction, postanovka, automation, hand, foot, movement,, attention, auditory perception, motorics, music, rhythm, movement, mutq, development of phonetic-phonetic, lexical-grammatical components of speech, communication, Pfaffenrod, Vlasovas, G. A. Volkova, T. M. Grebenko, voice, speech breathing,dyslalia, electron guide, prosody, speech-action

Ko’pgina eshitish qobiliyati past bolalarning og’zaki nutqi uchun, bir qator nutq tovushlarini ifodalashdagi nuqsonlar, hamda nutqning ritmik-intonatsion tomonining buzilishi xosdir.

Fonetik ritmika talaffuzni shakllantirish ishlariga organik ravishda kirishadi va eshitish qobiliyati zaif kichik yoshdagi bolalar nutqini tuzatishda ham, ularning harakatlari tabiiyligini rivojlrishda ham muhim rol o’ynaydi.

**Fonetik ritmika** - bu turli harakatlар (tana, bosh, qo’llar, oyoqlar) muayyan nutq materialining (iboralar, so’zlar, bo’g’inlar, tovushlar) talaffuzi bilan uyg’unlashtirilgan vosita mashqlari tizimidir.

Ilmiy adabiyotlarda harakatlaring rivojlanishi va talaffuzning shakllanishi o’rtasidagi filogenetik bog’liqlik isbotlangan. Tananing va nutq organlari harakatlarining uyg’unigi, eshitish qobiliyati zaif bolalarga xos bo’lgan nutqning keskinligi va monotonligini bartaraf etishga yordam beradi. Ritmik



tana harakatlarini bajarishda bolalar tomonidan erishiladigan erkinlik va bejirimlik nutq organlarining harakatlanish xususiyatlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu qo'llanmada Fonetik ritmika usuli eshitish qobiliyati zaif bolalar nutqining talaffuz tomonini shakllantirish va tuzatish bo'yicha ish uslubi sifatida keltirilgan. (Fonetik ritmika, albatta, surdo pedagogikasida qabul qilingan talaffuz ustida ishslashning boshqa texnikasi va usullarini rad qilmaydi.)

Fonetik ritmika mashg'ulotlarida asosiy yo'naliishlarni belgilovchi maqsadlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- nutq-harakat analizatorlari, eshitish analizatorlari ishi umumiy motorikani rivojlantirish bilan uyg'unlashtirish;
- zaif eshituvchi bolalarda umumiy motorikani nutq-harakat aylantirish jarayoni orqali aniq intonatsiyali va ritmik tabiiy nutqni shakllantirishga ko'maklashish;
- o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish va undan talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish va tuzatish jarayonida foydalanish.

Mashg'ulotlar mazmunini belgilashda, Eshitish qobiliyati zaif odamlarning talaffuziga bo'lgan talablardan tashqari, ushbu bolalarda harakatlarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ham hisobga olinadi. Yugoslaviyalik defektologlarining fonetik ritmika bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishdagi tajribasi mualliflarga katta yordam berdi.

Fonetik ritmika mashg'ulotlaridagi harakatlar va og'zaki nutqni o'z ichiga olgan barcha mashqlar quyidagilarga qaratilgan:

- nutq nafasini normallashtirishga va u bilan bog'liq bo'lgan nutqning uzviyligiga;
- me'yordan qo'pol og'ishlarsiz normal tembrni saqlab, ovozning kuchi va balandligini o'zgartirish ko'nikmalarini shakllantirishga;
- tovushlarni va ularning birikmalarini alohida, bo'g'in va so'z turkumlarida, so'zlarda, iboralarda to'g'ri ifodalashga;
- nutq materialini ma'lum bir sur'atda ifodalashga;
- turli ritmlarni idrok etish, farqlash va ifodalashga;
- o'z his-tuyg'ularini turli intonatsion vositalar orqali ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga.

Qo'llanmada tovushlar va ularning birikmali ustida ishslash bo'yicha tegishli bo'limlar yoritilgan; ritm va temp; nutqda nafasi va uzviyligi; ovoz va intonatsiya.

Nutq ustida ishslashda barcha bo'limlar bir xil darajada ahamiyatga ega va ularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. So'zdagi bo'g'lnarning



va gap yoki sintagmadagi so'zlarning uzuksiz talaffuzi talaffuz shakllanishining juda muhim va murakkab qismidir. Uzviylik ustida ishlash nutq nafasini normallashtirish va ovozni boshqarish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Nutq nafasini rivojlantirish mashqlari to'g'ri diafragma nafas olishni, nafas chiqarish davomiyligini, uming kuchini va bosqichma-bosqichligini rivojlantirishga yordam beradi. Ovoz ustida ishlash, uzoq nafas chiqarishda unli va undoshlarning talaffuzi bilan boshlanadi. Shu bilan bir vaqtida, tovushlarning sof talaffuzi uchun zarur shart bo'lgan so'zlarning elementlari bilan ishlash amalga oshiriladi.

Ovoz, nutq nafasi, temp va ritmni rivojlantirish mashqlari musiqa jo'rligida va musiqasiz amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar mazmuniga faqat harakatlarni, talaffuzsiz - musiqiy va ritmik stimulyatsiyalar bo'lgan mashqlar ham kiritilgan. Ushbu mashqlarning maqsadi nafas olishni normallashtirish, ritm tuyg'usini rivojlantirish va harakatni rivojlantirishdir. Ushbu harakatli mashqlar ritm hissi va nafas olish apparatidan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, musiqaga harakat qilish, bolalarning motorikasini rivojlantirishning samarali usullaridan biridir.

Musiqiylar - raqs elementlari bilan harakat mashqlarining kombinatsiyasıdir. Ular har bir mashg'ulotning majburiy komponenti bo'lib, magnitofon lentasiga yozilgan musiqa bo'yicha o'tkaziladi. Musiqiy jo'rlikni tanlashda, o'quvchilar ritmik zarblarni osongina ajrata oladigan raqs musiqasiga ustunlik beriladi. U quvnoq, ergashtiruvchan bo'lishi kerak, chunki bolalarga aynan shunday musiqa o'zining ritmik xarakterini harakatlar orqali ifodalash imkonini beradi. Bundan tashqari, musiqiy jo'rlik eshitish idrokini rivojlantirish uchun stimulyatorlardan biridir. Musiqa orqali (eshitish asosida) bolalarga tovushlarning turli ritmlari va tovush templarini





etkazish, shuningdek, ularda sinxron harakat qilish qobiliyatini rivojlantirish osonroq.

Musiqqa jo'rligida bajariladigan harakatlarning tabiatи turli bo'ladi.

Nafas olishni normallashtirish uchun mashqlarni bajarayotganda bir ma'romdagи harakatlар ustunlik qiladi.

Harakatlanishdagi ritm ustida ishslashda raqs elementlari, ritmik yurish qo'shiladi, ular turli xil qo'l harakatlari, qarsaklar bilan birgalikda taklif qilingan ritmnинг tabiatiga mos keladi.

Nutqning talaffuz tomonini normallashtirishga qaratilgan mashqlar tizimida musiqqa jo'rligisiz turli harakatlар qo'llaniladi: tana korpusining harakatlari - oldinga, yon tomonlarga egilishlar, 90, 180, 360 gradusga burilishlar; bosh harakatlari - o'ngga, chapga, oldinga, ortga burilishlar; qo'l harakati - yuqoriga, yon tomonlarga, oldinga ko'tarishlar, elkalarni ko'tarish va tushirishlar, panjalarning aylanish harakatlari; oyoq harakatlari - tizzalarni bukish va tekislashlar, oyoqlarni elka kengligida o'rnatish va h.k.z..

Bu harakatlarning tabiatи ham har xil - maromli va sekindan tortib, keskin va tezgacha. Nutq nafasi va nutq uzviyligi ustida ishslashda qo'llaniladigan mashqlar ohista harakatlар bilan tavsiflanadi.

Nutqning ritmi va tempi, ovoz va intonatsiya ustida ishlaganda harakatlар tabiiy xarakterga ega bo'lib, tovushlar va bo'g'irlarni talaffuz qilishda bajariladigan harakatlар, shuningdek, kulish, inkor etish va h.k.z. bilan bog'liq tabiiy imo-ishoralarni uyg'unlashtiradi.

Fonetik ritmikada mashg'ulotlarni o'tkazish uchun tanlangan barcha harakatlар, talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish va mustahkamlash uchun stimulyatsiya hisoblanadi. Mashg'ulotlarda bajariladigan harakatlар oldindan yodlab olinmadи. Shuning uchun ular o'qituvchi bilan sinxron ravishda bir necha marta (har biri 2-5 marta) takrorlanadi. Bolalar harakatlarni to'g'ri takrorlashni o'rganganlardan so'ng, takrorlashlar soni kamaytiriladi. So'z, bo'g'in, tovush nutqda to'g'ri amalga oshirilgandagina va harakat to'xtagandan keyingina harakat o'z vazifasini to'liq bajaradi. Shunday qilib, fonetik ritmika mashg'uloti jarayonidagi harakat - nutqni shakllantirish yoki uni tuzatishga bo'lgan maqsadga erishish vositasidir. Ushbu mashg'ulotlarning yakuniy maqsadi - harakatsiz fonetik jihatdan to'g'ri shakllantirilgan nutqdir.

Ushbu vazifani hal qilish uchun bolalarning taqlid qilish qobiliyati (harakatlар, ham nutqiy) va maksimal darajada eshitish qobiliyati safarbar qilinadi. Fonetik ritmika bo'yicha mashg'ulotlarda tovush kuchaytiruvchi uskunalardan foydalanish majburiydir. Bu simsiz ovoz kuchaytiruvchi uskunalar yoki shaxsiy



eshitish vositalari bo'lishi mumkin. Tanlangan jihozlar o'quvchilarning harakat erkinligini va tovushning yaxshi sisatini ta'minlashi zarur.

O'qituvchining mashg'ulot davomida beradigan ko'rsatmalar, shuningdek, barcha nutq materiallari o'quvchilarga eshitish - vizual tarzda taqdim etiladi. Ammo bu bilan birga faqat eshitish idrokidan ham foydalaniladi. Eshitish asosida ko'plab harakatli (yurish, yugurish, to'xtash, sakrash) va nutqli (she'r o'qish, tez aytishlar, savollarga javoblar, so'zlarni, bo'g'irlarni talaffuz qilish) mashqlari bajariladi.

Eshitishga turli ritmlarni, mantiqiy urg'uni, intonatsiyani farqlash, idrok etish va ifodalash bo'yicha ko'plab materiallar taklif etiladi.

Talaffuzni o'rgatishning analitik-sintetik printsipiga muvofiq, mashqlar butun so'z va uning elementlari (bo'g'inlar va alohida tovushlar) ustida ishslashni birlashtiradi. Mashqlarning materiali bo'lib so'zlar, bo'g'inlar, bo'g'in birikmalar, alohida tovushlar, shuningdek, iboralar, frazalar, tez aytishlar, sanoqlar, qisqa matnlar va she'rlar hizmat qiladi.

Nutq materiali bolalarga tanish va leksik jihatdan mavjud, mashg'ulotning fonetik vazifalariga javob beradi. Harakatlar bilan birga aytildigan nutq materiali fonetik ritmika bo'yicha mashg'ulotning bir qismini egallaydi. Qolgan vaqt ushbu materialni bosqichma-bosqich o'zlashtirish uchun ajratilgan - avval harakatlar bilan, keyin ularsiz. Oxirgi bosqichning maqsadi mustaqil nutqqa yaqin sharoitlarda olingan ko'nikmalarni avtomatlashtirishdir. Barcha nutq materiallardan talaffuzni to'g'rilash va eshitish qobiliyatini chiniqtirish uchun foydalaniladi.

Barcha mashqlar taqlid qilish orqali amalga oshiriladi. Nutq materiali oldindan yodlanmaydi. Mashg'ulot davomida o'quvchilar va o'qituvchi doira shaklida turadilar. Ular o'qituvchini yaqqol ko'rib turadilar, o'qituvchi bilan sinxron ravishda harakat qiladilar va nutq materialini talaffuz qiladilar. Vizual namoyish va ko'p karra takrorlash o'quvchini tabiiy to'g'ri taqlidga undaydi.

Agar mashg'ulot jarayonida ba'zi bolalar uchun ayni elementlar qitin bo'lsa, bu elementlarning ustida ishslash, individual mashg'ulotlarga qoldiriladi. Shunday qilib, fonetik ritmika bo'yicha frontal mashg'ulotlarning ozlashtirilmagan nutq materialining bir qismi yanada chuqurroq o'rgatish uchun individual mashg'ulotlarga o'taziladi. Bunday harakatchanlik to'g'ri talaffuzni mustahkamlashga yordam beradi. Individual mashg'ulotlar olib boradigan har bir surdopedagog fonetik ritmika bo'yicha mashg'ulotlarda qo'llaniladigan metodik ish usullarini o'zlashtirishi kerak.



Fonetik ritmika bo'yicha mashg'ulotni o'qituvchi-defektolog olib boradi, u tananing, qo'llarning, oyoqlarning, boshning turli harakatlarini to'g'ri va chiroyli bajarishni bilishi kerak:

- musiqa bilan ham, musiqasiz ham ritmik va chiroyli harakat qilishni;
- harakatlar tizimini turli tempdagи musiqa bilan uyg'unlashtira olishni;—
- o'quvchilarda harakat xarakterini ko'rish va to'g'rilay olishni;—
- o'zi va o'quvchilar harakatlarining maksimal tabiiyligi va erkin bo'lishi uchun intilishni;—
- o'quvchilarning talaffuzidagi kamchiliklarni eshitishni va ularni to'g'rilay olishni;
- ko'rsatmalarda ham, nutq materialini uzatishda ham normal balandlikdagi va kuchli ovozdan foydalinishni.

Barcha holatlarda o'qituvchi nutqi namuna bo'lib xizmat qilishi, fonetik jihatdan to'g'ri shakllangan, hissiy rangga ega bo'lishi kerak.

Qo'llanmaning tegishli bo'limlarida uslubiy tushuntirishlar, nutqning tovushlari, ritmi, tempi, nutq nafasi va uzviyligi, mantiqiy urg'usi, intonatsiya va ovoz ustida ishslash bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Taklif etilayotgan materialdan o'qituvchi kitobda berilgan ketma-ketlikni saqlagan holda, o'ziga mos deb hisoblagan mashqlarni tanlashi mumkin.

#### NUTQ TOVUSHLARI USTIDA ISHLASH

Fonetik ritmika mashg'ulotlarida tovushlar va bo'g'inalarning talaffuziga hamroh bolalarning harakatlari uchta asosiy element bilan tavsiflanadi: taranglanish, intensivlik, vaqt bilan.

Muayyan tovushlarni talaffuz qilganimizda, ularning talaffuzida ishtirok etadigan turli mushak guruhlari har hil taranglashadi yoki bo'shashadi. Bu harakatlarning xususiyatlari ham muskullarning harakatdagi ishtiroki darajasiga bog'liq. Nutq tovushlarining talaffuzi bilan birga amalga oshiriladigan harakatlarni tavsiflashda taranglanish: «tarang», «bir oz tarang», «bo'shashgan» atamalari bilan belgilanadi.

Intensivlik nutqning dinamikasini, ya'ni u yoki bu tovushni talaffuz qilishda yuzaga keladigan artikulyar apparatdagi harakatlarni belgilaydi. Harakatlarni tavsiflashda intensivlik quyidagi atamalari bilan belgilanadi: «kuchli», «kuchsiz».

Vaqt ma'lum bir harakatni bajarish tezligimizni belgilaydi. U davomiylik yoki qisqalik bilan ifodalanadi. Harakatlarni tavsiflashda vaqt «uzoq», «qisqacha», «cho'zilgan» atamalarida belgilanadi.



Fonetik ritmika bo'yicha mashg'ulotlarning boshidanoq, bu tovushli tovushlar va bo'g'inlarning talaffuziga hamroh bo'lgan mashqlarni bajarishda bolalarni harakatlarni ongli ravishda tartibga solishga o'rgatish kerak. ——

Ushbu unli va undosh tovushlar va bo'g'inlarning talaffuzi bilan bog'liq harakat mashqlari uchta asosiy dastlabgi holatdan boshlanadi (D.h.):

1. Oyoqlar birga, qo'llar ko'krak qafasi sathiida bukilgan, tirsaklar pastga tushgan holatda turiladi. Ushbu holatdan i, k, l, r dan tashqari deyarli barcha tovushlar uchun harakatlar boshlanadi.

2. Oyoqlar birga, qo'llar tirsaklarda bukilgan va elkalar darajasiga ko'tarilgan, tirsaklar bir-biridan yonga ajralgan holatda turiladi. Bunday D.h.dan, i, k, l tovushlar uchun harakatlar boshlanadi.

3. Oyoqlar birga, qo'llar ko'krak qafasi sathiida oldinga cho'zilgan. Bu r tovushi uchun D.h.

Bir juda muhim uslubiy eslatmani aytib o'tish kerak. Agar bolada ajratilgan unlilarni talaffuz qilishda burun bilan gapirishga ochiq moyilllik bo'lsa, unda mashqlar unli va undosh tovushlar uyg'unligida, masalan, pa, po va hokazolar bilan birgalikda bajarilishi kerak.

## UNDOSH TOVUSHLAR

### Jarangsiz tovushlar

#### P

D.h.1. bir vaqtning o'zida pa, pa bo'g'imlarini talaffuz qilish bilan musht bo'lib siqilgan o'ng va chap qo'l bilan yon tomonlarga keskin harakatlar (zarbalar kabi).

Harakat tarang, kuchli, qisqa (12-rasm).



#### T

D.h.1. bir vaqtning o'zida ta, ta bo'g'imlarini talaffuz qilish bilan musht bo'lib siqilgan o'ng va chap qo'l bilan pastga keskin harakatlar (zarbalar kabi).

Harakat tarang, kuchli, qisqa (13-rasm).





## K

D.h.2. ka, ka bo'g'inlarini talaffuz qilib keskin kuchli harakat bilan, o'ng va chap tirsaklarni tanaga bir vaqtning o'zida bosing. Harakat tarang, kuchli, qisqa (14-rasm).

Olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdi-ki, fonetik ritmika texnologiyasi nutqiylar nafas, ovoz, tovush artikulyatsiysi, bolaning kinestetik imkoniyatlari, tovushlar talaffuzi, umumiy va mayda qo'l motorikasi, nutqning umumiy holati hamda prosodikasini shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qilar ekan. Shunday ekan, biz tomonidan tajriba – sinov ishlari nafaqat eshitishida muammolari bor bolalar balki nutqida nuqsoni bor bolalarning nutqini shakllantirish va rivojlantirishda ushbu metodikani qo'llashga qaratilgan. Natijalarni keyingi sonlarda yoritib boramiz.

### **Adabiyotlar:**

1. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. Chirchiq, 1(1), 70.
2. Ishmatova, O. S. (2022). MAVZU: ESHITISHIDA NUQSONI BOR BOLALARNI ESTETIK TARBIYALASHNING MUHIM OMIL. Uzbek Scholar Journal, 10, 333-336.
3. Ishmatova, O. S. (2022). FONETIK RITMIKA TEXNOLOGIYASINI QO'LLASHDA AKT NING ROLI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(12), 781-786.
4. Ishmatova, O. S. (2022). ROLE OF PHONETIC RHYTHM IN CORRECTION OF SPEECH DEFECTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(11), 487-491.

### **РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalar nutqini rivojlantirish uchun fonetikadan foydalangan holda nutqning fonetik-fonemati, leksik-grammatik komponentlari ustida korreksion ish olib borish mazmuni yoritilgan.

### **РЕЗЮМЕ**

В данной статье описано содержание коррекционной работы с использованием метода фонетической ритмики для развития фонетико-фонетического, лексико-грамматического компонентов речи детей с особыми образовательными потребностями.

### **SUMMARY**

This article describes the content of correctional work using the method of phonetic rhythm for the development of phonetic-phonetic, lexical-grammatical components of the speech of children with special educational needs.